

**Milliy qadriyatlar va ularning millat ma'naviyatidagi o'rni" shiori ostida "Spectre kino klubi"
a'zolari tomonidan Toshkent Xalqaro Vestminster Universitetida tashkil etilgan tadbiri
B A Y O N N O M A S I**

2025 yil 10.10

TXVU

2025-yil 10- oktabr kuni Toshkent Xalqaro Vestminster Universitetining faol talabalari -"The Intern" klubi tashabbusi bilan talabalar uchun madaniy-hordiq tadbiri bo'lgan **"Spectre kino klubi"** tadbiri tashkil etildi. Tadbirning maqsadi – talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida do'stona va ijodiy muhit yaratish, ingliz tilidagi kino orqali til ko'nikmalarini mustahkamlash va muhim ijtimoiy mavzular yuzasidan ochiq muhokama maydonini yaratishdan iborat bo'ldi.

Tadbir universitet hududidagi ATB zalida bo'lib o'tdi va unda 27 nafardan ortiq talaba qatnashdi. "The Intern" klubi tomonidan tanlangan film (Stajyor) talabalar tomonidan qiziqish bilan kutib olindi.

Ishtirokchilar o'z fikrlarini ingliz tilida ifodalashga harakat qilishdi, bu esa ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi;

"The Intern" klubi vakillari tomonidan motivatsion so'zlar aytiladi hamda keyingi rejalashtirilayotgan tadbirlar haqida ma'lumot berildi.

Tadbir davomida talabalarga yengil shirinliklar, ichimliklar va qulay muhit taqdim etildi. Kino kechasi ko'ngilochar bo'lishi bilan birga, talabalarning tafakkurini, tilini va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida e'tirof etildi.

"Spectre kino klubi" ishtirokchilarda yuqori taassurot qoldirdi va bunday madaniy tadbirlarni muntazam tashkil etish takliflari bildirildi.



**TXVU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi Prorektori:**

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F. Ismagilova